



OGYUST KONT INSON TAFAKKURI RIVOJLANISHINING UCH BOSQICH QONUNIYATI

Saydirahimov Azizbek Rustam o'g'li

azizsaydrahimov228@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola sotsiologiyaning asoschilaridan biri Ogyust Kont tomonidan ishlab chiqilgan insoniy tafakkur va ijtimoiy taraqqiyotning fundamental nazariyasi – "Uch bosqich qonuniyati" ni tahlil qiladi. Maqolada har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy tuzilmalar bilan aloqadorligi, shuningdek, ushbu qonuniyatning sotsiologik tahlildagi ahamiyati atroflicha ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Ogyust Kont, uch bosqich qonuniyati, teologik bosqich, metafizik bosqich, pozitiv bosqich, sotsiologiya, fetishizm, politeizm, monoteizm.*

KIRISH

Kishilar jamiyatda doimo ro'y beradigan xilma-xil ijtimoiy hodisalarning mohiyati va sababini tushunishga asrlar davomida intilib kelganlar. Ko'pgina mutafakkir olimlar ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini aniqlabgina qolmay, jamiyat taraqqiyotini boshqaruvchi kuch nimada, murakkab ijtimoiy voqealar va to'xtovsiz ro'y berayotgan o'zgarishlar tasodifiymi yoki ular muayyan ob'ektiv qonunlarga asoslanganmi, degan savollarga javob topishga intilganlar. Inson tafakkuri, uning bilim olish va dunyoni idrok etish jarayoni, doimiy o'sish va rivojlanish bosqichlaridan o'tib boradi. Har bir bosqichda fikrlash usullari va dunyoqarashning o'zgarishi kutiladi.

Sotsiologiya (lot. Socius - jamiyat, yun. Λόγος - bilim, ta'lim, tushuncha) - bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari to'g'risidagi fan [1].

Sotsiologiya ilmiy uslublar yordamida hosil qilingan empirik (tajribaga asoslangan) ma'lumotlarga tayanib umumlashma xulosalar chiqara oladi. Shu tufayli jamiyatning rivojlanish modellarini ilmiy asoslab beradi.

Jamiyat hayotini tushuntirishga urinishlar antik davrda (Platon, Aristotel va boshqalar) paydo bo'ldi, tarix falsafasida davom etdi. O'rta Osiyolik mutafakkirlar (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) asarlarida ham jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar bildirilgan. Sotsiologik tasavvur va qarashlar XIX asrning 1-yarmida O. Kont, G. Spenser kabi olimlar ijodi natijasida fan darajasiga ko'tarildi va qariyb 200 yildan buyon rivojlanib



kelmoqda. Sotsiologiyani asoschisi fransuz mutaffakiri Ogyust Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi.

Adabiyotlar tahlili. XIX asrning birinchi yarmida fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (Auguste Comte, 1798–1857) sotsiologiya fanining asoschisi sifatida tan olindi. U jamiyatni o'rganuvchi fan tabiiy fanlar kabi aniq metodlarga ega bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdi. Kontning asosiy maqsadi jamiyatni boshqarish, yangidan tartib o'rnatish va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy asosda tushuntirishdan iborat edi. Kont o'zining "Pozitiv falsafa kursi" asarida insoniy bilim, tafakkur va butun jamiyatning izchil rivojlanishini tushuntiruvchi markaziy g'oyani - "Inson tafakkuri rivojlanishining uch bosqich qonuniyati" ni ilgari suradi. Bu qonuniyat Kontning barcha sotsiologik va falsafiy qarashlarining negizini tashkil etadi va insoniyatning intellektual taraqqiyotini tushunish uchun muhim omil sanaladi.

Kontning fikriga ko'ra, insoniyat tafakkuri ham, jamiyat fikriy taraqqiyoti ham muayyan izchillik asosida rivojlanadi. Inson aqliy faolligi vaqt o'tishi bilan tobora murakkablashib, yuqori darajaga ko'tariladi. Ushbu jarayon qonuniy ravishda uch bosqichdan o'tadi:

1. Teologik yoki soxta bosqich;
2. Metafizik yoki abstrakt bosqich;
3. Ilmiy yoki pozitiv bosqich [2].

Bu bosqichlar nafaqat intellektual, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy tuzilmalarning o'zgarishini ham belgilaydi.

Quyida har bir bosqichning xususiyatlari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz:

1. Teologik (Diniy) Bosqich.

Uch bosqich qonuniyatining birinchi va eng qadimgi bosqichi teologik (Kont uni "soxta" deb ham atagan) bosqichdir. Bu bosqichda inson aqli tabiatdagi hodisalarning sabablarini va olamning mohiyatini ilohiy yoki g'ayritabiiy kuchlar, xudolar yoki ruhlar aralashuvi bilan izohlaydi. Bu insoniyatning ilk davriga xos bo'lib, bilimlarni tushunishdagi eng oddiy yondashuvdir.

Teologik bosqichning o'zi uch kichik bosqichga bo'linadi:

1. Fetishizm: Bu eng ibtidoiy bosqich bo'lib, bunda insonlar jonsiz narsalarga (daraxtlar, toshlar, hayvonlar va boshqalar) ruh va ilohiy kuchlar sifatini berib, ularga sig'inadilar.

2. Politeizm (Ko'pxudolik): Jamiyat murakkablashgani sari, insonlar bir nechta xudolar va ma'budalar tizimini yaratadilar, ularning har biri tabiatning ma'lum bir jihati (masalan, chaqmoq xudosi, dengiz xudosi, hosildorlik ma'budasi) uchun mas'ul deb hisoblanadi. Bu bosqichda tushuntirishlar biroz tizimlashgan bo'ladi.



3. Monoteizm (Yakxudolik): Eng rivojlangan teologik bosqich bo'lib, bunda barcha hodisalar yagona, oliy kuch - Xudo irodasi bilan bog'lanadi. Bu davrda din va cherkovlar jamiyatda katta hukmronlikka ega bo'ladi.

Teologik bosqichda jamiyat harbiy xarakterga ega bo'lib, hokimiyat ruhoniylar va harbiy rahbarlar qo'lida to'planadi. Ijtimoiy tartibni din va urf-odatlar belgilaydi.

II. Metafizik (Abstrakt) Bosqich

Ikkinchi bosqich metafizik (yoki "abstract") bosqichdir. Bu teologik va pozitiv bosqichlar orasidagi o'tish davri hisoblanadi. Bu bosqichda g'ayritabiiy kuchlar va xudolarga ishonch zaiflashadi, ularning o'rnini mavhum kuchlar, mohiyatlar va falsafiy tushunchalar egallaydi. Insonlar endi hodisalarni tushuntirishda xudolar o'rniga "tabiat", "aqliy kuch", "hayotiy energiya", "haq-huquq" kabi abstrakt g'oyalarga murojaat qiladilar.

Masalan, tabiatdagi o'zgarishlarni xudoning irodasi bilan emas, balki "tabiatning o'z qonunlari" bilan izohlashga harakat qilinadi. Biroq, bu tushuntirishlar hali ham ampirik kuzatuvlarga asoslanmagan va isbotlanmagan bo'ladi. Ular ko'pincha mavhum spekulyatsiyalarga va falsafiy mulohazalarga tayangan bo'ladi.

Metafizik bosqichda harbiy hukmronlik o'z ahamiyatini yo'qotadi, cherkovning ta'siri kamayadi. Hokimiyat huquqshunoslar va faylasuflar qo'lga o'tadi. Bu davr ko'pincha tartibsizliklar, inqiloblar va eski ijtimoiy tartibning parchalanishi bilan tavsiflanadi, chunki yangi, barqaror tizim hali shakllanmagan bo'ladi.

III. Pozitiv (Ilmiy) Bosqich

Uchinchi va Kontning fikricha, eng yuqori hamda yakuniy bosqich pozitiv (yoki "ilmiy") bosqichdir. Bu bosqichda inson aqli barcha g'ayritabiiy va mavhum tushunchalardan voz kechib, faqatgina faktlar, kuzatuvlar va tajribalarga asoslangan bilimga intiladi. Asosiy maqsad - hodisalarning sabablarini topishdan ko'ra, ularning qanday sodir bo'lishini (hodisalarning o'zaro aloqalari va doimiy qonuniyatlarini) aniqlash, ularni tushuntirish, bashorat qilish va shu orqali boshqarishdir.

Pozitiv bosqichda fan va ilmiy metodologiya hukmronlik qiladi. Bilimlar nazariyalar va ampirik isbotlar orqali tekshiriladi. Kont ushbu bosqichda paydo bo'lgan sotsiologiyani "pozitiv fanlar iyerarxiyasining toji" deb hisoblagan, chunki u jamiyatni ilmiy metodlar yordamida o'rganishga va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan edi.

Pozitiv bosqichda jamiyat sanoat va ilmiy xarakterga ega bo'ladi. Hokimiyat olimlar, muhandislar va sanoatchilar qo'lga o'tadi. Ijtimoiy tartibni fan, mantiq va ijtimoiy muhandislik tamoyillari ta'minlaydi. Kont ideal



jamiyatni "sotsiokratiya" deb atagan, u yerda ijtimoiy muammolar ilmiy yondashuvlar orqali hal qilinadi va "aqliy tartib" hukmronlik qiladi [3].

Ogyust Kontning uch bosqich qonuniyati quyidagi muhim ahamiyatlarga ega:

Bu qonuniyat sotsiologiyaning ilmiy fan sifatida paydo bo'lishi uchun intellektual asos bo'lib xizmat qildi. Kont insoniyatning intellektual taraqqiyoti jamiyatning o'zi ilmiy o'rganilishiga olib kelishi kerakligini ta'kidladi. Qonuniyat insoniyatning uzluksiz progressiv rivojlanish g'oyasini ilgari suradi. Har bir yangi bosqich avvalgisidan ustunroq va mukammalroqdir. Kont ijtimoiy tartib va taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berdi. Uning fikricha, intellektual tartib ijtimoiy tartibni, intellektual taraqqiyot esa ijtimoiy taraqqiyotni belgilaydi.

Qonuniyat insoniyat tarixini tushunish uchun tizimli yo'lni ochib beradi, bu esa turli davrlardagi bilimlarni va ijtimoiy tuzilmalarni tahlil qilish imkonini beradi [4].

Xulosa qilib aytganda, Kontning inson tafakkurining rivojlanishining uch bosqich qonuniyati, nafaqat tarixiy va falsafiy qiziqishlar uchun, balki zamonaviy ilmiy yondashuvlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Kontning ta'kidlashicha, inson tafakkuri vaqt o'tishi bilan rivojlanadi va turli bosqichlardan o'tadi. Diniy va metafizik tushunchalardan ilmiy va empirik yondashuvlarga o'tish jarayoni jamiyatning umumiy intellektual rivojlanishining ifodasi hisoblanadi. Shuningdek, bu qonuniyatlar insoniyat tarixidagi falsafiy, ilmiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Inson tafakkurining rivojlanishining uch bosqichi jamiyatning intellektual va madaniy yuksalishida katta o'rin tutgan.

Umuman olganda, Kontning uch bosqich qonuniyati inson tafakkurining tarixiy rivojlanishini tizimli va mantiqiy tarzda tushuntirib beruvchi nazariya bo'lib, u ilmiy tafakkurning ustuvorligini asoslashda, jamiyat va fan taraqqiyotini anglashda muhim metodologik ahamiyatga ega. Bu ushbu qonuniyatlarni yanada chuqurroq o'rganish, hozirgi kunda ilm-fan va falsafaning qanday shakllanishiga, rivojlanishiga va jamiyatga ta'sir qilishiga tahlil qilishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Entoni Giddens. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Sharq, 2002. 789 bet.
2. Auguste Comte. "Cours de philosophie positive". (<http://dx.doi.org/doi:10.1522/cla.coa.cou2>)
3. B. Normurodov, G. Normurodova. Sotsiologiya tarixi. O'quv qo'llanma. Tafakkur, 2010. 112 bet.
4. M. Qirg'izboyev. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Navro'z, 2017. 456 bet.